

PREEKLAMPSIYA PATOGENEZIDA sFlt-1 OQSILINING ROLI

Yusufjonova Maftuna Komil qizi

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada preeklampsiyada sFlt-1 (soluble fms-like tyrosine kinase-1) oqsilining patogenezdagi roli va uning klinik ahamiyati tahlil qilinadi. sFlt-1 ning ortiqcha ishlab chiqilishi endoteliy disfunktsiyasi, arterial gipertenziya va proteinuriya rivojlanishiga olib kelishi ko'rsatildi. Shu orqali oqsil darajasining monitoringi preeklampsiyani erta tashxislash, og'irlik darajasini baholash va individual davolash strategiyalarini ishlab chiqishda muhim vosita hisoblanadi. Maqola sFlt-1 oqsilining patofiziologik mexanizmlari va klinik qo'llanilishi asoslarini yoritadi.

Kalit so'zlar: preeklampsiya, sFlt-1, angiogenez, endoteliy disfunktsiyasi, homiladorlik

KIRISH

Preeklampsiya homiladorlikning ikkinchi yarmida uchraydigan, arterial gipertenziya va proteinuriya bilan kechuvchi og'ir akusherlik asorati bo'lib, ona va homila salomatligi uchun jiddiy xavf tug'diradi. Kasallik patogenezinini chuqur tushunish va uning erta tashxisini aniqlash hozirgi tibbiyotda ustuvor vazifa hisoblanadi. So'nggi tadqiqotlar preeklampsiya rivojlanishida antiangiogen omillar, xususan sFlt-1 oqsilining markaziy rolini ko'rsatmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

sFlt-1 — VEGF va PlGF ning eruvchan retseptori bo'lib, ularning biologik faolligini susaytiradi. Preeklampsiya holatida platsentada sFlt-1 ning ortiqcha ishlab chiqilishi endoteliy disfunktsiyasiga olib keladi. Natijada arterial bosim oshadi, tomir o'tkazuvchanligi kuchayadi va proteinuriya yuzaga keladi. Qon zardobidagi sFlt-1 darajasining monitoringi kasallikning og'irligi bilan bevosita

bog'liq bo'lib, erta tashxis va prognozlashda muhim biomarker sifatida xizmat qiladi.

sFlt-1/PlGF nisbatining ortishi preeklampsyani boshqa gipertenziyal holatlardan farqlash imkonini beradi hamda homiladorlik asoratlarini oldindan bashorat qilishda klinik ahamiyatga ega. Shu bilan birga, oqsilning darajasini aniqlash preeklampsyani individual davolash strategiyalari bilan boshqarishda ham yordam beradi.

NATIJALAR

sFlt-1 ning patofiziologik roli preeklampsiya rivojlanishining markaziy mexanizmi ekanligi isbotlandi. Oqsil darajasini nazorat qilish orqali kasallikni erta aniqlash, uning og'irlik darajasini baholash va xavf guruhidagi bemorlarni identifikatsiyalash mumkin. Shu bilan birga, sFlt-1 klinik tadqiqotlarda samarali biomarker sifatida qo'llanilishi, ona va bola salomatligini himoya qilishda tibbiy amaliyotga bevosita ta'sir qiladi.

XULOSA VA MUNOZARA

sFlt-1 oqsili preeklampsiya patogenezida markaziy o'rin tutadi. Oqsil darajasini monitoring qilish kasallikni erta tashxislash, og'irlik darajasini aniqlash va individual davolash strategiyalarini ishlab chiqishda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli sFlt-1 preeklampsiya bilan bog'liq patofiziologik jarayonlarni tushunishda va klinik amaliyotda keng qo'llanilishi zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Roberts J.M., Hubel C.A. The two stage model of preeclampsia: variations on 7the theme. *Placenta*. 2009; 30 Suppl A: S32–S37.
2. Levine R.J., Maynard S.E., Qian C., et al. Circulating angiogenic factors and the risk of preeclampsia. *N Engl J Med*. 2004; 350(7): 672–683.

3. Rana S., Karumanchi S.A., Lindheimer M.D. Preeclampsia: Pathophysiology and clinical implications. *Nat Rev Nephrol.* 2019; 15: 275–289.
4. Ahmad S., Ahmed A. Anti-angiogenic factors in preeclampsia: potential therapeutic implications. *Expert Rev Cardiovasc Ther.* 2004; 2(5): 737–747.